



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO’NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

## **THE REPRESENTATION OF NATIONAL AND SPIRITUAL VALUES IN THE CHARACTER PORTRAYAL IN THE NOVEL “STARLIT NIGHTS”**

Kattakurgan State Pedagogical Institute 3rd-year student of Uzbek Language and  
Literature

**Isomova Ruxshona Ilhom qizi**

Isomovaruxshona77@gmail.com

**Annotation:** This article examines the role of national and spiritual values in shaping the characters of heroes in Pirimkul Kadyrov’s historical novel “Starry Nights.” Through the system of central characters in the work, the ethical and aesthetic views of the Uzbek people, as well as the culture of family relationships, are analyzed from a scholarly perspective. The novel presents not only a chronicle of historical events, but also an artistic depiction of the Uzbek national character and spiritual values. Each central character in the work embodies a specific national value. The main manifestations of national and spiritual values are considered through the characters of the key figures.

**Keywords:** historical psychologism, artistic character, national identity, lyrical digression, loyalty, spiritual phenomenon, Babur studies, national values, system of images, Babur, spirituality, historical novel, loyalty, artistic character.

## **“YULDUZLI TUNLAR” ROMANIDA MILLIY-MA’NAVIY QADRIYATLARNING OBRAZLAR XARAKTERIDA YORITISH**

Kattaqo’rg’on davlat pedagogika instituti

3-kurs O’zbek tili va adabiyoti talabasi

Isomova Ruxshona Ilhom qizi

Isomovaruxshona77@gmail.com

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Pirimkul Qodirovning “Yulduzli tunlar” tarixiy

romanida

233



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

milliy va ma'naviy qadriyatlarning qahramonlar xarakterini shakllantirishdagi o'rni tadqiq etiladi. Asardagi markaziy obrazlar tizimi orqali o'zbek xalqining etik-estetik qarashlari, oilaviy munosabatlar madaniyati ilmiy tahlilga tortilgan. Romanda nafaqat tarixiy voqealar xronikasi, balki o'zbek milliy xarakteri va ma'naviy qadriyatlarining badiiy tasviri hamdir. Asardagi har bir markaziy obraz ma'lum bir milliy qadriyatni o'zida mujassam etadi. Milliy-ma'naviy qadriyatlarning asosiy obrazlar xarakterida ko'rib chiqamiz.

**Kalit so'zlar:** Tarixiy psixologizm, badiiy xarakter, milliy o'zlik, lirik chekinish, sadoqat, ma'naviy fenomen, Boburshunoslik. milliy qadriyat, obrazlar tizimi, Bobur, ma'naviyat, tarixiy roman, sadoqat, badiiy xarakter.

**Аннотация:** В данной статье исследуется роль национальных и духовных ценностей в формировании характеров героев исторического романа Пиримкула Кадырова «Звёздные ночи». Через систему центральных образов произведения анализируются этикоэстетические взгляды узбекского народа, а также культура семейных отношений. Роман представляет собой не только хронику исторических событий, но и художественное отражение национального характера и духовных ценностей узбекского народа. Каждый центральный образ в произведении воплощает определённую национальную ценность. Основные проявления национально-духовных ценностей рассматриваются через характеры ключевых персонажей.

**Ключевые слова:** исторический психологизм, художественный характер, национальная идентичность, лирическое отступление, верность, духовный феномен, бабуроведение, национальные ценности, система образов, Бабур, духовность, исторический роман, верность, художественный характер.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

## **KIRISH**

Tarixiy asarlar nafaqat o‘tmish voqealarini tiklaydi, balki millatning milliy qadriyatlarini ham namoyish etadi. Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani bu borada o‘zbek adabiyotining cho‘qqilaridan biri hisoblanadi. Romanda Zahiriddin Muhammad Boburning murakkab hayot yo‘li orqali xalqimizga xos bo‘lgan eng olijanob qadriyatlar badiiy bo‘yoqlarda tasvirlangan. “Yulduzli tunlar” romani nafaqat Boburiylar sulolasining shakllanishini, balki Markaziy Osiyo xalqlarining XV-XVI asrlardagi ma’naviy-axloqiy qiyofasini ham ochib beradi. Muallif tarixiy hujjatlardagi quruq faktlarga milliy ruh va badiiy psixologizm bag‘ishlash orqali milliy qadriyatlarning tirik obrazlarini yaratgan. Tarixiy asarlar nafaqat o‘tmish voqealarini tiklash, balki millatning ma’naviy va madaniy qadriyatlarini yosh avlodga yetkazish vositasidir.

Ular xalq ruhiyatining, qadriyatlarining, urf-odatlarining, shuningdek, milliy identifikatsiyaning ayni zamonadagi ifodasidir. Ayniqsa, tarixiy romanlar — bu tarixiy voqealarni badiiy til bilan tasvirlab, o‘quvchida o‘tmishga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otadi va milliy ruhni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani bugungi kunda o‘zbek adabiyotining eng muhim yutuqlaridan biri bo‘lib, yoshlar va keng omma uchun milliy-ma’naviy qadriyatlarni yoritishda yangi bosqichni boshlab bergan asar hisoblanadi. Bu roman nafaqat Bobur shaxsining murakkab hayot yo‘li, balki u bilan bog‘liq milliy qadriyatlar va ma’naviy qadriyatlarning o‘ziga xos ifodasi sifatida muhim ahamiyatga ega. Tarixiy voqealar bilan birga, roman milliy xarakter va ma’naviyatning asriy qiyofasini ochib beradi. Shuning uchun, mazkur asar o‘zbek madaniyatining yuksalishi va yosh avlodda milliy g‘urur va ma’naviyatni shakllantirish uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

## **MUHOKAMA**

Romandagi har bir obraz — bu milliy ma’naviyatning muhim timsoli, ularning har biri o‘ziga xos ma’naviy yukni o‘zida mujassam etadi. Bobur obrazi — asarning yuragi va ma’naviy o‘zagi bo‘lib, uning xarakteri orqali milliy qadriyatlar — adolat, vatanparvarlik, sadoqat va ma’rifatparvarlik tasvirlanadi. Boburning hayoti va faoliyatida milliylik va shaxsiylik o‘rtasidagi muvofiqlik, ona yurtga bo‘lgan sevgisi va yurakdagi vatan tuyg‘usi muhim o‘rin tutadi. Boburning Hindistonda yashab, ona tuprog‘ini, qovun hidini eslab yig‘lash sahnasi — milliy identitarning eng yuksak ifodasi bo‘lib, vatan sog‘inchining moddiy va ma’naviy timsolidir. Bu sahna nafaqat Boburning shaxsiy kechinmalarini, balki milliy ma’naviyat va oilaviy qadriyatlarning muhimligini ham ochib beradi.

Romanda oilaviy qadriyatlar — kattalar so‘ziga bo‘lgan hurmat, onaning maslahatiga amal qilish, ona va otaning nima uchun muhimligi kabi unsurlar muhim o‘rin tutadi. Boburning onasi Qutlug‘ Nigor xonim bilan bo‘lgan muloqoti va unga bo‘lgan hurmati, oilaviy halollik va ma’naviy intizomni anglatadi. Bu qadriyatlar, shuningdek, o‘zbek jamiyatida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan "kattalarga hurmat qilish" tamoyilini ifodalaydi. Boshqa tomondan, romandagi sadoqat va do‘stlik qadriyatlari — Qosimbek va boshqa beklar orqali namoyon bo‘lib, milliy mardlik va do‘stlikning eng muhim timsoli sifatida ko‘rsatiladi. Ularning sadoqati, hatto og‘ir sharoitlarda ham, shaxsiy manfaatdan ustun turadi va milliy ruhni ifodalaydi.

Shuningdek, romanda ayol obrazlari orqali milliy ma’naviyat va oilaviy qadriyatlarning nozik qirralari ochib beriladi. Xonzodabegim obrazida — o‘zbek ayolining matonati, vatan uchun qurbonlik qilishga tayyorligi va oilaning sharafi uchun har narsaga tayyorligi ko‘rsatiladi. Bu obrazlar orqali milliy ayol timsoli — oilaviy va



**"ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO'NALISHLARI" nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

milliy qadriyatlarning ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Yana bir muhim jihat — asardagi badiiy usullar, ayniqsa, tarixiy psixologizm va lirik chekinishlar orqali milliy ruhni ifodalash. Obrazlarning ichki dunyosi va kechinmalari orqali milliy qadriyatlar va milliy ma'naviyatning yashovchanligi ta'kidlanadi. Bu uslublar orqali muallif milliy xarakter va shaxsiyatning murakkabligini, uning tarixiy sinovlar va qiyinchiliklar davridagi ma'naviy tanlovini ochib beradi.

Zamonaviy davrda, globallashuv jarayonlari sharoitida, mazkur asar yoshlar uchun muhim o'rnak bo'lib, milliy qadriyatlarni saqlash, rivojlantirish va yosh avlodga yetkazish uchun mustahkam manba

Romandagi har bir obraz muayyan bir ma'naviy yukni ko'tarib keladi. Bobur obrazi — asarning ma'naviy o'zagi. Undagi milliy qadriyat adolat va vatanparvarlik tamoyillari ustiga qurilgan. Boburning butun umri — boy berilgan Andijon va Samarqand sog'inchi bilan kechadi. Hindistonda turib, ona tuprog'ini eslab yig'lashi, qovun hidi orqali vatanini qo'msashi — o'zbekona vatanparvarlikning eng yuksak cho'qqisidir. Boburning saltanatdan ko'ra Andijon tuprog'ini, u yerdagi bir siqim tuproq va qovunni afzal bilishi — o'zbekona vatanparvarlikning eng oliy ko'rinishidir.

Hindiston istilosidan so'ng, Boburning huzuriga Movarounnahrda savdogarlar qovun keltirishadi. Bobur qovunni qo'lga olib, uning hidini to'yib hidlaydi va ko'zlariga yosh keladi. U atrofdagilarga qarab: "Hindistonning shirin mevalari ko'p, ammo Andijonning oddiygina qovunidek ko'ngilni yoritadigan nemat yo'q ekan", — deydi. Hindiston jazirasida Boburga Andijondan qovun keltirilgan sahnada saltanatning bepoyon boyliklari ichida turib, bir dona qovun isi orqali ona tuprog'ini, yoshligini va boy berilgan vatanini qo'msaydi. Bu o'rinda qovun — milliy o'zlik va vatan sog'inchining moddiy timsolidir. Romandagi eng markaziy qadriyat — Vatan hissi. Bobur Hindistonda dunyoning eng boy saltanatlaridan birini qurdi, ammo asar



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

davomida uning ruhiyati doimo Movarounnahrda, xususan, Andijon va Samarqandga talpinadi. Asarda Boburning Vatan sog‘inchi shunchaki hissiyot emas, balki uning shaxsiyatini ochib berishda xizmat qiladi. Masalan, uning quyidagi bayti romandagi qahramonning ruhiy holatiga ilmiy-mantiqiy asos bo‘ladi: Tole’ yo‘qi jonimga balolig‘ bo‘ldi, Har ishniki qildim — xatolig‘ bo‘ldi.

O‘z yerin qo‘yib, Hind sori yuzlandim,  
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi?

Ushbu baytda adib tasvirlagan Boburning barcha ichki ziddiyatlari va armoni mujassam. Hindistonda turib, qovun keltirilganda yig‘lashi yoki Andijonning bog‘larini eslashi — o‘zbekona "Vatan – omonatdir" degan tushunchaning ifodasidir.

O‘zbek xalqining eng fundamental qadriyatlaridan biri — kattalar so‘zini ikki qilmaslik. Misol: Bobur Kobulni egallab, Hindiston sari yurish qilish yoki qilmaslik borasida ikkilanib turganda, onasi Qutlug‘ Nigor xonimning maslahatiga tayanadi. Onasi unga: "Ota-bobolaringiz qilmagan ishga qo‘l urmoqchisiz, ammo adolatni unutmasangiz, tangri sizni qo‘llaydi",— degan mazmunda o‘git beradi. Shuningdek, Boburning otasi Umarshayx Mirzo vafotidan so‘ng, 12 yoshli bola bo‘lishiga qaramay, onasining maslahatlarini olishi unga hurmatining yorqin namunasidir.

Ona roziligi tushunchalari qahramonlar hayotini yo‘naltiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Boburning onasi Qutlug‘ Nigor xonim bilan maslahatlashishi, ularning o‘gitlariga so‘zsiz amal qilishi xalqimizning oilaviy munosabatlarda onaga bo‘lgan cheksiz ehtiromini ochib beradi. Bobur har gal muhim qaror (masalan, Samarqandga yurish yoki Hindistonga ketish) qabul qilishdan oldin onasi Qutlug‘ Nigor xonim huzuriga kiradi. Ularning rozilgisiz biror ish boshlamaydi. Bu — o‘zbek oilasining asriy qadriyati bo‘lgan "Kattalarga hurmat"ning ko‘rinishidir.



**"ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO'NALISHLARI" nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Qosimbek, Tohir va boshqa beklar obrazi orqali lafzga sodiqlik va do'stlik qadriyatlari yoritilgan. Romanda xiyonat qanchalik qattiq qoralansa, sadoqat shunchalik ulug'lanadi. Bobur taxtdan ayrilib, hisor tog'larida bor-yo'g'i 200-300 kishi bilan qolganda, Qosimbek uning yonida turadi. Ular qahraton sovuqda, ozuqasiz qolganlarida ham Boburni tashlab ketishmaydi. Bobur barcha boyliklaridan ayrilib, tog'larda darbadar bo'lib yurganida, uning ko'plab beklari Shayboniyxon tomoniga o'tib ketishadi. Ammo Qosimbek qahraton sovuqda, otining go'shtini yeb bo'lsa-da, Boburning yonida qoladi. Bobur unga: "Sizning ham oilangiz bor, keting, o'zingizni qutqaring", — deganida, Qosimbek: "Biz siz bilan faqat taxt tepasida emas, qismat tepasida ham birgamiz", — deb javob beradi. Qosimbekning: "Siz bizning bekimizsiz, siz bilan o'limga ham, qolg'onga ham tayyormiz", — degan so'zlari o'zbekning "Lafzga sodiqlik" qadriyatini ko'rsatadi.

Bu — milliy ruhning asrlar osha yashab kelayotgan muhim bo'lagidir. O'zbekona mardlikda sotqinlik eng yomon illat sanaladi. Boburning atrofidagi sadoqatli beklar eng qiyin — hatto tog'larda och va yalang'och qolgan kunlarida ham uni tashlab ketishmaydi. Bu — o'zbekona "tuz haqqi" va "birodarlik" tushunchalarining badiiy isbotidir. Uning jang maydonida ham, saroyda ham insoniylikni saqlab qolishi, dushmaniga nisbatan ham mardlik bilan munosabatda bo'lishi milliy xarakterimizdagi bag'rikenglikni ifodalaydi.

Bobur obrazi orqali millatning ma'rifatparvarlik tabiati ko'rsatilgan. Masalan, jang maydonida, hatto dushman qamalida qolganida ham Bobur kitob yozishdan ("Boburnoma") va she'riyatdan to'xtamaydi. Jang maydonida ham qo'lidan kitob tushmagan hukmdor obrazida millatimizning ma'rifatparvarlik silsilasi namoyon bo'ladi. U Kobulni egallaganda birinchi navbatda kutubxona qurishni o'ylaydi. Bu asar o'zbek tarixiy romanchiligini yangi bosqichga olib chiqdi. Unda ilk bor Zahiriddin



**"ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO'NALISHLARI" nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Muhammad Bobur shaxsi nafaqat shoh va sarkarda, balki murakkab ruhiyatli inson, shoir va adolatli shaxs sifatida gavdalandi. Asar o'zbek kitobxonining milliy g'ururini uyg'otgan va tariximizga bo'lgan munosabatini o'zgartirgan asardir. Boburning o'zi va uning atrofidagi muhit doimo kitobxonlik, she'riyat va ilm bilan hamnafas. Hatto urush olovi ichida ham she'riyat kechalari (majlislar) o'tkazilishi xalqimizning "Ma'rifatli kishi mag'lub bo'lmaydi" degan hayotiy falsafasini ko'rsatadi. Boburning quyidagi bayti uning hayot falsafasini yoritadi.

Har kimki vafo qilsa — vafo topqusidur, Har kimki jafog' qilsa — jafog' topqusidur. Yaxshi kishi ko'rماغay yomonlig' hargiz, Har kimki yomon bo'lsa — jazo topqusidur.

Ayol obrazi orqali milliy ma'naviyatimizning eng nozik qirralari ochib berilgan. Xonzodabegim — o'zbek ayolining matonati timsoli. U o'z ukasining va xalqining omonligi uchun o'z shaxsiy hayotini qurbon qiladi. Bobur Samarqand qamalida qolganda, Shayboniyxon sulh evaziga uning opasini so'raydi. Bobur bunga mutlaqo qarshi bo'ladi, biroq Xonzodabegimning o'zi ukasiga qarata: "Siz bitta men uchun butun bir xonadonning so'nib borayotgan chirog'ini o'chirmoqchimisiz? Meni deb minglab askarlarning qoni to'kilishiga rozi bo'lasizmi?" — deya so'raydi. Ushbu muloqot o'zbek ayolining o'z jigari (ukasi) va xalqi uchun o'zini qurbon qilishga tayyor ekanligini, oilaning sharafi barcha narsadan ustunligini ko'rsatadi. Shayboniyxon saroyidagi ayanchli, ammo mag'rur hayoti orqali muallif o'zbek ayolining oila va yurt uchun har qanday qiyinchilikka tayyor ekanligini ko'rsatadi. Xonzodabegim — millat va oila sha'ni uchun o'zini qurbon qiluvchi o'zbek ayoli timsolida gavdalantiriladi. Uning Shayboniyxon saroyidagi tutqunlik yillari dostonlardagi mard qizlar (To'maris, Barchinoy) an'alarining davomidir.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Pirimqul Qodirov tarixiy hujjatlarni badiiy to‘qima bilan shunday mahorat bilan bog‘laganki, undagi Bobur, Xonzodabegim yoki Qosimbek kabi siymolar orqali millatning eng olijanob fazilatlarini — mardlik, iffat va ilm-fan sevgisi namoyon bo‘ladi. Milliy ruh asarning har bir sahifasida, qahramonlarning muloqoti va ichki kechinmalarida ufuq turadi.

### **XULOSA**

“Yulduzli tunlar”dagi obrazlar — bu bizning milliy ideallarimizdir. Ular orqali kitobxon o‘zining kimligini, qanday buyuk ma’naviy meros vorisi ekanligini anglaydi. Qosimbek kabi sarkardalar siymosida "Lafzga sodiqlik" qadriyati yoritilgan.

Asardagi milliy qadriyatlar qulay sharoitda emas, balki ekstremal holatlarda — urushlar, ochlik va taxt talashishlar jarayonida namoyon bo‘ladi. Bugungi globallashtirish zamonida yoshlar uchun Boburdek shaxsiy kamolotga erishgan, ham jismonan mard, ham ma’nan boy qahramonlar haqiqiy o‘rnakdir. Zamon o'zgarsa-da, qadriyat qoladi. Ma’naviyat va milliy o‘zlik o‘zgarmas konstantadir. Asar bizga zamonaviy bo‘lish uchun milliy ildizlardan uzilmaslik kerakligini o‘rgatadi. Mazkur asar o‘quvchida nafaqat tarixiy bilim, balki vatan oldidagi mas’uliyat hissini shakllantiradi. “Yulduzli tunlar” — shunchaki Bobur haqidagi qissa emas, balki o‘zbek ruhining badiiy in’ikosidir. Muallif har bir obraz orqali milliy qadriyatlarimizning yashovchanligini isbotlab bergan. Asar yakunida Boburning vafoti jismoniy yo‘qolish emas, balki ma’naviy mangulikka ko‘chish sifatida qabul qilinadi, bu asar har bir o‘quvchini o‘zligini anglashga va ma’naviy yetuklikka chorlovchi mangu qo‘llanmadir. Xiyonat yo‘lini tutgan beklar milliy ma’naviyatdan uzilgan, manfaatchi shaxslar sifatida qattiq tanqid qilinadi.

Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani milliy-ma’naviy qadriyatlarni badiiy xarakterlarning ichki dunyosi orqali yoritishda yangi ilmiy bosqichni boshlab



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

bergan. Asar tahlili shuni ko‘rsatadiki, milliy xarakter faqat urf-odatlar yig‘indisi emas, balki shaxsning tarixiy sinovlar paytidagi ma‘naviy tanlovidir. Boburning shaxsiyati, uning she‘riyati va davlat arbobi sifatidagi faoliyati uyg‘unlikda o‘zbek milliy mentalitetining eng yorqin qirralarini ifodalaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Qodirov P. "Yulduzli tunlar". — Toshkent: "Sharq", 2014.
- 2.Karimov N. "XX asr o'zbek adabiyoti manzaralari". — Toshkent: "O'zbekiston", 2008.
- 3.Sultonov I. "Adabiyot nazariyasi". — T.: "O'qituvchi", 2005.
- 4.Bobur Z.M. "Boburnoma". — T.: "Yulduzcha", 1989